
Yangi sport zali ish boshladi

Farg'ona shahridagi "Soybo'yi" mahalla fuqarolar yig'inida yangi sport zali ochildi. Tadbirkor Shukurillo Abdullayev tomonidan ochildgan "Brofit" sport zali bir vaqtning o'zida 100 ga yaqin sportsevarlar trenajyor uskunalaridan foydalanishlari mumkin.

Zamonaviy ko'rinishda bunyod etilgan sport zalining ochilish marosimida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari va keng jamoatchilik vakillari hamda sportsevar yoshlar ishtirok etishdi.

Tadbir ishtirokchilari sport zalida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Faoliyatni yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Ayni kunlarda sportchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida o'ndan ortiq ish o'rinlari yaratildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-05-16 18:17:18